

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARNING QADRSIZLANISHI VA ULARNING HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusalomov Miralisher Uktamboy o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida aktivlarning qadrsizlanishi va ularning hisobini takomillashtirish masalalari o'rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda aktivlarning sifatini baholash, qadrsizlanish darajasini aniqlash, risklarni boshqarish hamda ularning hisobini yuritish mexanizmlari zamonaviy moliyaviy tahlil usullari asosida tahlil qilingan. «Hamkorbank» ATB misolida markaziy apparat va filial darajasida aktivlarning qadrsizlanishi dinamikasi o'rganilib, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida aktivlarning qadrsizlanishini samarali boshqarish, hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamlashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Xususan, aktivlarning qadrsizlanishini kamaytirish, ehtimoliy yo'qotishlarni to'g'ri baholash, risklarni diversifikatsiya qilish hamda aktivlarni nazorat qilishda raqamli tahlil mexanizmlarini joriy etish kabi yechimlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlarning qadrsizlanishi, aktivlar hisobi, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil, AT «Hamkorbank».

Annotation: This article examines the issues of asset impairment in commercial banks of Uzbekistan and the improvement of their accounting, while developing scientifically grounded recommendations. The study analyzes asset quality assessment, determination of impairment level, risk management, and accounting mechanisms based on modern financial analysis methods. Using the case of "Hamkorbank" JSCB, the dynamics of asset impairment at both the central office and branch level were studied, and the factors affecting financial stability and profitability indicators were identified.

The research results provide practical recommendations for the effective management of asset impairment in commercial banks, aligning accounting with international standards, and introducing digitalization. In particular, solutions are proposed for reducing asset impairment, properly assessing expected losses, diversifying risks, and implementing digital analytical mechanisms for asset monitoring.

Keywords: commercial banks, bank assets, asset impairment, asset accounting, financial stability, risk management, digital analysis, "Hamkorbank" JSCB

Kirish

Tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotida real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bank aktivlaridan samarali foydalanish nafaqat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, tijorat banklarida aktivlarning qadrsizlanishini oldini olish va ularning hisobini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy moliyaviy mahsulotlar joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aktivlarning sifatini oshirish, ularning qayta baholash mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro standartlar asosida hisob yuritish tizimini joriy etish tijorat banklari faoliyatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va moliyaviy tartibga solish tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar bank aktivlarining samarali boshqaruvini taqozo etmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da tijorat banklari faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda aktivlarning qadrsizlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan¹.

Mazkur jarayonlarda “Hamkorbank” ATB misolida aktivlarning qadrsizlanishini oldini olish, ularning sifatini yaxshilash va hisobini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi

Mavzuning dolzarbligi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, tijorat banklarida aktivlarning qadrsizlanishini o‘z vaqtida aniqlash va ularning hisobini takomillashtirish orqali bank moliyaviy menejmentini kuchaytirish, strategik qarorlarni qabul qilishni takomillashtirish hamda ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruvni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, filiallar va markaziy apparat darajasida aktivlar sifatini muntazam tahlil qilish orqali qadrsizlanish xavfi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining barqarorligi va bank-moliya tizimining uzluksiz rivojini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati bilan hamohang bo‘lib, ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, aktivlarning qadrsizlanishini to‘g‘ri baholash va ularning hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish nafaqat tijorat

banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, balki butun moliyaviy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tijorat banklari faoliyatida bank aktivlarning qadrsizlanishi va ular hisobini takomillashtirish ilmiy asoslarini chuqur o'rganish maqsad qilingan. Ushbu vazifani amalga oshirishda aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo'llanilishi rejalashtirilmogda. Mazkur yondashuv nazariy va empirik tadqiqot usullarini uyg'unlashtirgan holda, aktivlardan foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Bu uslub xalqaro hamda mahalliy tajribalarda o'zining yuqori natijadorligini ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlarining qadrsizlanishi – bu aktivlarning haqiqiy qiymati kamayishi, ular bo'yicha kutilayotgan daromadlarning pasayishi yoki yo'qolib ketish holatidir. Qadrsizlanish bir qator sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin. Qarzdorlarning moliyaviy qobiliyati yomonlashishi, kreditlarni qaytarishdagi kechikishlar yoki umuman qaytarilmasligi, moliyaviy bozorlar beqarorligi, valyuta kursining o'zgarishi, aktivlar sifatiga ta'sir etuvchi tashqi iqtisodiy va ichki operatsion muammolar misol bo'la oladi. Bu holat bank aktivlarining umumiy qiymatini pasaytiradi, kapital yetarliligini zaiflashtiradi va kredit portfeli rentabelligini kamaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda tijorat banklari faoliyatida aktivlarni samarali boshqarishning moliyaviy natijalar va risklar balansiga ta'siri keng yoritilgan. Frederic S. Mishkin (Columbia University, AQSh) o'zining "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" asarida bank aktivlari tarkibini oqilona boshqarish bankning likvidligi, rentabelligi va risk profilini muvozanatlashtirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aktivlarni optimal taqsimlash (asset allocation) orqali sof foiz marjasi (NIM) va bankning umumiy foydasi sezilarli darajada oshirilishi mumkin².

Anthony Saunders (New York University) va Marcia Millon Cornett "Financial Institutions Management" asarida esa aktivlarni qadrsizlanishini oldini olish va risklarni nazorat qilishda "risk-return trade-off" konsepsiyasi muhimligini ko'rsatadi. Ularning yondashuvida kredit portfeli sifati, investitsiya qimmatli qog'ozlarining diversifikatsiyasi va likvid aktivlar ulushi aktivlar sifati va qadrsizlanish ehtimolini baholashda asosiy mezonlar sifatida olinadi³.

O'zbekiston bank tizimida 2020–2024 yillar davomida amalga oshirilgan moliyaviy islohotlar (jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil

² Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education, Columbia University.

³ Saunders, A., & Cornett, M. M. (2018). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. McGraw-Hill Education, New York University.

12-maydagi PF-5992-son Farmoni va 2020-yil 24-noyabrdagi PQ-4886-son Qarori) bank aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha yangi talablarni belgilab berdi. Ushbu hujjatlar asosida tijorat banklari aktivlarining diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va rentabellikni oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi. Natijada, bank aktivlarining qadrsizlanishini to'g'ri baholash va ularning hisobini takomillashtirish milliy bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda⁴. Bank aktivlaridan samarali foydalanish masalasi nafaqat jahon moliya tizimida, balki O'zbekiston bank sektorida ham dolzarb ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan uch asosiy blokda olib borilgan: (1) Bank aktivlari tushunchasi va tasnifi, (2) Aktivlar samaradorligini baholash usullari, (3) Aktivlarni boshqarish strategiyalari va optimallashtirish mexanizmlari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida aktivlarning qadrsizlanishi jarayonini nazorat qilish va ularning hisobini to'g'ri yuritish bankning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda rentabelligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha chuqur tahlil olib borish orqali bank rahbariyati qaysi yo'nalishlarda risk darajasi yuqori yoki past ekanligini aniqlashi hamda aktivlar hisobini takomillashtirishga qaratilgan optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishi mumkin.

Tijorat banklari aktivlarning sifat ko'rsatkichlari va qadrsizlanishni baholash ko'rsatkichlari (AT Hamkorbank misolida)

Yil	Kredit va lizing operatsiyalari (brutto, mln so'm)	Kredit va lizing operatsiyalari (sof, mln so'm)	Qoplash zaxirasi (mln so'm)	Boshqa banklardan olinadigan mablag'lar (brutto, mln so'm)	Minus: Qoplash zaxirasi (mln so'm)
2023	15 128 308	14 871 392	256 916	1 587 046	2 042
2024	20 841 994	20 400 379	441 615	3 930 864	2 517
2025	20 841 994	20 400 379	441 615	4 562 093	3 210

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hamkorbankning 2021–2025 yillar bo'yicha aktivlar sifati va qadrsizlanish ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bankning kredit portfeli hajmi yildan-yilga sezilarli o'sish tendensiyasiga ega. 2023-yilda kredit va lizing operatsiyalari brutto

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020-yil 12-may). "Bank tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5992-son Farmoni. Toshkent.

ko‘rinishda 15,1 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 20,8 trln so‘mga yetgan va 2025-yilda ham shu darajada saqlanib qolgan. Bu esa bankning iqtisodiyotga yo‘naltirayotgan moliyaviy resurslari kengayib borayotganidan dalolat beradi. Kredit va lizing operatsiyalarining sof qismi ham mos ravishda o‘shib borgan. Masalan, 2023-yilda sof kredit hajmi 14,8 trln so‘m bo‘lsa, 2024-yilda 20,4 trln so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich bankning kreditlash faoliyati faollashganini va mijozlarga moliyaviy xizmatlar hajmi ortib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, qadrsizlanish va zararlarni qoplash uchun ajratilgan zaxiralar hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda. 2023-yilda 256,9 mlrd so‘m bo‘lgan zaxira 2024-yilda 441,6 mlrd so‘mga yetgan. 2025-yilda ham shu darajada saqlangan. Bu tendensiya bir tomondan, bankning risklarni boshqarish siyosati kuchayib borayotganini ko‘rsatsa, boshqa tomondan, aktivlar sifatida muammoli kreditlar ulushi ma‘lum darajada oshayotganidan dalolat berishi mumkin.


AT «Hamkorbank» aktivlari qadrsizlanishi ko‘rsatkichlari tahlili (2021–2024)

Yil	Jami aktivlar (trln so‘m)	Kredit portfeli (trln so‘m)	Qoplash uchun zahiralar (mlrd so‘m)	Qadrsizlanish ulushi (%)	Izoh
2021	13,27	8,96	220	2,5 %	Kreditlar hajmi katta, biroq aktivlarning sifatini ta‘minlash uchun yetarli zahira shakllantirilgan.
2022	16,45	11,20	310	2,8 %	Kredit portfeli o‘shishi bilan birga risklar ham ortgan, zahiralar biroz oshirilgan.
2023	19,85	15,30	420	2,7 %	Kredit risklarini diversifikatsiya qilish ishlari boshlangan, qadrsizlanish ulushi barqarorlashgan.
2024	22,49	18,95	500	2,6 %	Kreditlar sezilarli ko‘paygan bo‘lsa-da, risklarni boshqarish samarali bo‘lgani uchun qadrsizlanish ulushi pasaygan.

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, AT «Hamkorbank» aktivlari qadrsizlanishi ko‘rsatkichlari bo‘yicha aktivlar hajmining barqaror o‘shishi va uning ta‘siri, 2021–2024 yillarda AT «Hamkorbank» jami aktivlari 13,27 trln so‘mdan 22,49 trln so‘mgacha oshib, 1,7 barobar o‘shishga erishdi. Bunday o‘shish bankning moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, bozor ulushini kengaytirish hamda mijozlar bazasini

oshirish imkoniyatini bergan. Shu bilan birga, aktivlarning tez o‘shishi aktivlar sifatini nazorat qilishni kuchaytirishni talab etadi. Kredit portfeli asosiy drayver sifatida, kredit va lizing operatsiyalari bank aktivlarining 65–70% ini tashkil etmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotning maqsadi – tijorat banklari, jumladan, ATB “Hamkorbank” misolida bank aktivlarining qadrsizlanishini baholash, ularning hisobini yuritishning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini aniqlash hamda aktivlar qadrsizlanishini kamaytirish va hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida qator ilmiy savollarga javob topishga intilindi.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Nazariy asoslar. Tadqiqot davomida bank aktivlarining qadrsizlanishi muammosi va ularni hisobga olishning nazariy yondashuvlari chuqur o‘rganildi. Natijada, aktivlarni baholash va qadrsizlanishini aniqlashda zamonaviy modellardan foydalanish samaradorligi tasdiqlandi. Jumladan, Asset Quality Review (AQR) va Impairment Testing Models kabi yondashuvlar aktivlar sifatini baholashda muhim uslubiy vosita sifatida tanlandi. Ushbu modellardan foydalanish orqali bank aktivlarini risk darajasi, ularning kutilayotgan daromadlilik hamda qaytarilmaslik ehtimoli bilan bog‘lab tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Aktivlarni nolikvid, shartli likvid va yuqori likvid toifalarga ajratib nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirildi. Bu yondashuv qadrsizlanish darajasini real ko‘rsatkichlar asosida aniqlash hamda moliyaviy hisobotlarda ularni to‘g‘ri aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. ALM va RBAM modellarini to‘liq joriy etish. Aktivlarni risk va likvidlik darajalari bo‘yicha chuqur tahlil qilish bank balansida yuqori konsentratsiyaga ega bo‘lgan nolikvid aktivlarni aniqlashga va ularni diversifikatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarini integratsiya qilish. ROA, ROE, NIM va aktivlar aylanish tezligi kabi asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish hamda ularni byudjetlashtirish tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu aktivlardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash, rahbarlar va ijrochilar faoliyatini aniq natijalar bilan bog‘lash imkonini beradi.

3. Aktivlarni boshqarishda raqamlashtirishni kuchaytirish. Moliyaviy monitoringni va aktivlar tarkibini tahlil qilish jarayonlarini raqamlashtirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda analitik platformalardan foydalanish orqali bank aktivlarini real vaqt rejimida kuzatish va risklarni tezkor boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shirinov, Sh., Abduxoliqov, A. Bank ishi va moliyaviy menejment. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. — 450 b.
2. Bozorova, M. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish asoslari. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. — 380 b.
3. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 11th ed. — Boston: Pearson, 2021. — 720 p.
4. Rose, P.S., Hudgins, S.C. Bank Management & Financial Services. 10th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2019. — 736 p.
5. Anthony, R.N., Govindarajan, V. Management Control Systems. 12th ed. — Boston: McGraw-Hill Education, 2007. — 768 p.
6. Saunders, A., Cornett, M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 9th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2018. — 816 p.
7. Fabozzi, F.J., Modigliani, F., Jones, F.J. Foundations of Financial Markets and Institutions. 4th ed. — Boston: Pearson, 2010. — 648 p.
8. Kohn, M. Financial Institutions and Markets. 2nd ed. — New York: Oxford University Press, 2004. — 840 p.
9. Heffernan, S. Modern Banking. — Chichester: Wiley, 2005. — 784 p.
10. Greuning, H., Bratanovic, S.B. Analyzing Banking Risk: A Framework for Assessing Corporate Governance and Risk Management. 4th ed. — Washington, D.C.: World Bank Publications, 2020. — 446 p.